
Akademik Muhammad Kabir Bahodirxonov bilan onlayn suhbat o’tkazildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamkorlikda o’tkazilayotgan “Akademik bilan suhbat” onlayn loyihasining bu galgi mehmoni fizika sohasidagi yetuk olim, O‘zR FA akademigi Bahodirxonov Muhammad Kabir Saidxonovich bo’ldilar.


Ushbu onlayn suhbat Zoom platformasida bo’lib o’tdi. Unda Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biloglar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati o’qituvchi va o’quvchilari ishtirok etdi.




Akademik Muhammad Kabir Bahodirxonov o’quvchilarga o’zining maktab va talabalik davrlari, fizika sohasidagi ilmiy izlanishlari, sohaga kirib kelishi haqida gapirib berdi. Shuningdek, energetika sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar haqida ham gapirib, bu yo’nalishda yaratilgan ayrim laboratoriya qurilmalarini ko’rsatib o’tdi va akademik Muhammad Kabir Bahodirxonovning shogirdlari tomonidan ular haqida suhbat ishtirokchilariga to’liq ma’lumot berildi.

Биз бу ерда сиз азизларнинг диққатингизни икки нарсага жалб қилмоқчимиз. Биринчиси- қуёш элементлари орқали қуёш нуридан тўғридан тўғри электр энергиясини ҳосил қилиш масаласи. Демак қуёш элементлар сони қанча куп бўлса ҳосил бўлаётган электр энергия миқдори ҳам шунча кўп бўлади. Бу деган сўз бизга керакли миқдордаги электр энергиясини олиш учун шунга мос ҳолда қуёш элементларини ўзаро параллел ва кетма-кет улаш орқали хохлаган электр энергия қийматини олиш мумкин экан, буни биз қуёш электр станцияси деб атаймиз.







O’quvchilar o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi. Ishtirokchilar ushbu onlayn suhbat uchun o’z minnatdorchiliklarini bildirdilar hamda kelgusida bu kabi muloqotlar tez-tez o’tkazib turilishi istagida ekanliklarini ta’kidladilar.